



O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH ZARURATI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Axmadjonova Gulmira

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0004-3225-5312

g.akhmadjonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda "Yashil iqtisodiyotni" joriy etish natijalari, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy, sog'liqni saqlash, aholi farovonligi ko'rsatkichlarining tahlili, mavzuga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlarning sharhi, "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish istiqbollari va imkoniyatlari, qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: hudud, rivojlanish, qayta tiklanuvchi resurs, qayta tiklanmaydigan resurs, barqaror rivojlanish, energiya, innovatsiya, moliyaviy manbalar, iqtisodiy rivojlanish, ekologik muammolar, o'lim, ichimlik suvi.

НЕОБХОДИМОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Ахмаджонова Гульмира

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассмотрены результаты внедрения "зеленой экономики" в нашей стране, анализ экономико-социальных показателей, показателей здоровья, благосостояния населения страны, обзор зарубежной и отечественной литературы по теме, Перспективы и возможности развития "зеленой экономики", вопросы повышения эффективности использования невозобновляемых и возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: территория, развитие, возобновляемые ресурсы, невозобновляемые ресурсы, устойчивое развитие, энергия, инновации, финансовые ресурсы, экономическое развитие, экологические проблемы, смерть, питьевая вода.

THE NEED TO INTRODUCE A GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: ANALYSIS AND PROSPECTS

Akhmadjonova Gulmira

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Annotation. This article examines the outcomes of introducing a "Green Economy" in Uzbekistan, analyzing the economic, social, health, and population welfare indicators within the country. It includes a review of both foreign and domestic literature on the topic, assesses the prospects and opportunities for the development of a green economy, and addresses issues related to improving the efficiency of using renewable and non-renewable energy sources.

Keywords: territory, development, renewable resources, non-renewable resources, sustainable development, energy, innovation, financial resources, economic development, environmental issues, mortality, drinking water.

Kirish.

Jahon amaliyotida hududlarni barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy hamda ekologik tizimlarini o'zaro samarali uyg'unligida o'rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mamlakatlar rivojlanishi bevosita hududlar barqarorligiga bog'liq bo'lib, mazkur masalaning ijobiy jihatlari innovatsion iqtisodiyotni kengaytirish asosida resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishni o'z ichiga qamrab olmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, soha davomiyligi va o'sishini ta'minlash resurslar mavjudligiga bog'liq. Bu esa, hududlarning barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy va ekologik tizimlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv qarorlarining samarali amal qilishi bilan bog'liqdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan "Barqaror rivojlanish" konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan. XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o'sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu, o'z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yo'nalishlari: qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurilish sohalari barchasi "yashil" tus olishi muhimligini anglatadi.

"Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o'tish global darajada ham, O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardandir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo'lib, u BMTning qaror va hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik asosi, bu "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Hozirgi beqaror tendensiyalarni bartaraf etish uchun 2015-yilda BMTning 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun 17 ta "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarining o'ziga xos mezonlari aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" (Qaror, 2022, PQ-436) Qarori imzolandi. Unga ko'ra 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilib olingan.

Shuningdek, issiqxona gazlarini YaIMga nisbatan avvalgi yillardagi darajaga nisbatan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish maqsad etib belgilandi. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha 2030 yilga qadar Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya hajmini 30 foizga kamaytirish (2023 yilga nisbatan), Sanoatda elektr energiyasi iste'moli, umumiy iste'moldagi ulushini 20 foizga kamaytirish, Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushini 30,5 foizga kengaytirish (gidroenergetika bilan birga), "Yashil makon" loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizga kengaytirish (aholi punkting umumiy maydoniga nisbatan) ko'rsatkichlari belgilandi (Muminova, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishimizni yoritishda taqqoslash, analiz, sintez, iqtisodiy tahlil, analitik tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillarda mamlakatimizda "Yashil iqtisodiyot" rivojlanishi va natijalari o'rganildi, muammolar va sohaga oid boshqa bir qator istiqbolli vazifalar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni analitik tahlil usulidan foydalanilgan holda kengroq qilib yoritib berishga

harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi.

Adabiyotlar sharhi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni moliyaviy mablag'larsiz amalga oshirish mumkin emasligi tufayli alohida "Yashil" moliyalashtirish tizimini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Shu sababli Bunevich va Gorbacheva (2022) o'zlarining tadqiqotlarida "Yashil moliya", "Yashil investitsiyalash" tushunchalarini ilgari surdilar. Yangi "Yashil" moliyaviy vositalar nafaqat ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhit va iqlim muammolarini hal qilish va uni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan, degan fikrni keltirishgan.

Zhang (2021) va boshqalarning tadqiqotlarida yashil iqtisodiy samaradorlik, Durbin modeli, yashil iqtisodiyotda toza energiyaning roli, yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham mazkur masala atroflicha o'rganilgan bo'lib, "Yashil iqtisodiyot"ning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarining jahondagi hozirgi holati tahlil qilingan va rivojlanish tendensiyalari Nurov (2022) tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Iminov, Vahobov, Teshaboev, Bo'taboevlarning (2019) tadqiqotlarida "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning xorijiy tajribalari, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy ekologik muammolar kabi masalalari atroflicha o'rganilgan.

Alimov (2023) "Yashil iqtisodiyot" – iqtisodiyot yo'nalishi bo'lib, unda iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismidir. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini ta'minlash, shuningdek, yakuniy foydalanish mahsulotlarini ishlab chiqarish sikliga qaytarishga qaratilgan jarayondir deb keltirib o'tgan.

Isadjanov (2020) "Yashil iqtisodiyot" -bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo'lib, yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanishini ko'rsatib bergan:

- cheklangan makonda ta'sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo'lmaydi;
- resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- "Yer yuzida hamma narsa bir-biri bilan bog'liq"-degan fikrni ta'kidlaydi.

Xashimov (2022) Yashil iqtisodiyot – inson hayoti va sog'ligi uchun zarur bo'lgan resurslarni, ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga va atrof-muhitni buzmasdan iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tizim. Yashil iqtisodiyotni biz ekologik iqtisodiyot bilan bog'lasak adashmagan bo'lamiz, lekin u ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yangi yo'nalish hisoblanishi haqida aytib o'tgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiyot va jamiyatni salbiy o'zgarishlarga bardosh turadigan hamda ularning oqibatlaridan tezda tiklana oladigan barqaror rivojlanish konsepsiyasini, barcha turdagi resurslardan (suv, energetika va va x.k.) samarali foydalanish masalalarini birinchi o'ringa chiqardi.

Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasini evolyutsiyasi "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasini yaratilishiga sababchi bo'ldi va jamiyat hamda iqtisodiyot tabiat tizimlari bilan birga ham-ohang tarzda bo'lishi qayd etila boshlandi. Keyinchalik "Global yashil yangi kurs" konsepsiyasi BMTning atrof-muhit dasturi (YNDP, 2009) taklif etildi. Uning asosiy mazmuni investitsiyalarni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirish va rag'batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo'llashga, energosamaradorlikni ta'minlashga va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni hal etishga qaratilgan.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish bir qator muhim afzalliklarga ega va mamlakat barqaror rivojlanishi uchun muhim qadamdir. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishning asosiy sabablari va zaruriyati quyidagilardan iborat:

*Birinchi*dan, ekologik ta'sirni kamaytirish lozim, ifloslanish muammolari: O'zbekiston sanoat chiqindilari va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish natijasida havo, suv va tuproqning ifloslanishi kabi ekologik muammolarga duch kelmoqda. Biologik xilma-xillikni saqlash: yashil iqtisodiyot ekologik muvozanatni saqlash uchun muhim bo'lgan tabiiy ekotizimlar va biologik xilma-xillikni saqlashga hissa qo'shishi mumkin.

*Ikkinchi*dan, resurslardan barqaror foydalanish energiya samaradorligiga erishish: energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalarni joriy etish energiya sarfini va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Suv va tuproq: suv resurslaridan samarali foydalanish va barqaror qishloq xo'jaligi qishloq xo'jaligi sektori uchun muhim bo'lgan tuproq va suv sifatini saqlab qolishga yordam beradi.

*Uchinchi*dan, iqtisodiy afzalliklari ya'ni yangi ish o'rinlari yaratish: yashil texnologiyalar va barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish natijasida yangi ish o'rinlari va biznes imkoniyatlarini yaratadi. Investitsiyalarni jalb qilish: yashil iqtisodiyot investitsiyalarni, shu jumladan barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan xalqaro fondlar va grantlarni jalb qilishi mumkin.

*To'rtinchi*dan, iqlim o'zgarishiga moslashish, iqlim xavfiga chidamlilik: yashil texnologiyalarga o'tish ekstremal ob-havo bilan bog'liq xavflarni kamaytirish orqali iqtisodiyot va infratuzilmaning iqlim o'zgarishiga chidamliligini yaxshilashga yordam beradi.

*Beshinchi*dan, ijtimoiy tashabbuslar, hayot sifatini oshirish: ekologik vaziyatni yaxshilash fuqarolarning hayot sifati, salomatligi va farovonligini oshirishga yordam beradi. Ta'lim va xabardorlik: yashil iqtisodiyotni rivojlantirish aholi o'rtasida ekologik xabardorlikni oshirishga va ekologik ta'limni rivojlantirishga yordam beradi.

*Oltinchi*dan, xalqaro majburiyatlar global kelishuvlarga erishish: yashil iqtisodiyotni joriy etish O'zbekistonning issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro majburiyatlariga mos keladi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni samarali joriy etish uchun quyidagi bosqichlarni ko'rib chiqish mumkin:

Strategiya va siyosatni ishlab chiqish: barqaror rivojlanish va ekologiya bo'yicha milliy strategiyalarni yaratish va amalga oshirish.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish: yashil texnologiyalarni tadqiq qilish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.

Ta'lim va o'qitish: yashil iqtisodiyotda xabardorlik va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va kurslarini joriy etish.

Yashil iqtisodiyotga o'tish davlat tuzilmalari, biznes va jamiyat o'rtasida kompleks yondashuv va o'zaro ta'sirni talab qiladi. Bu nafaqat mavjud ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi, balki O'zbekiston uchun barqaror va farovon kelajak uchun sharoit yaratadi.


"Yashil" iqtisodiyot energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyaning muqobil manbalariga, organik qishloq xo'jaligiga, eko-developmentga (atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatgan holda qurilishga), ilg'or logistikaga asoslanadi.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiyotda inson iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Har qanday holatda ham iqtisodiy o'sishga emas, balki barqaror rivojlanishga e'tibor qaratadigan tendensiya muhimdir. Ushbu tendensiya tarafdorlari iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan va uning bir qismi bo'lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismi deb hisoblashadi. "Yashil" iqtisodiyotning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tabiiy resurslardan samarali foydalanish;
- tabiiy kapitalni saqlash va boyitish;

- atrof-muhit ifloslanishini himoya qilish;
- kam uglerod chiqaruvchi iqtisodiyotga erishish;
- chiqindilarni qayta ishlash va mahsulotga aylantirish;
- ekotizim xizmatlari va biologik xilma xillikni saqlab qolish;
- daromad va bandlikni ta'minlash;
- iqtisodiyotda energiya samaradorligiga erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini to'la iste'mol qilishga o'tish.

Bu o'z navbatida iqtisodiyotga tabiatga ziyon yetkazmay rivojlanish va aholining ekologik farovonligini saqlash imkonini beradi, tabiiy kapitalni saqlash va oshirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, zaharli moddalar va uglerod chiqarilishini kamaytiradi, bio-xilma-xillikni kengaytiradi, shuningdek aholi daromadlari va bandligini oshiradi. Ham birlamchi, ham ikkilamchi resurslardan ehtiyotkor va oqilona foydalanish "yashil iqtisodiyot" ga xos, bunda an'anaviy iste'molga o'rgangan jamiyat mas'uliyat bilan iste'mol qiluvchi jamiyatga aylanadi. "Yashil iqtisodiyot" modeli inson faoliyati va tabiat hamkorligini normallashtiradi (General Report for Representatives of Power Structures, 2022).



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi

Manba: muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi.


"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning ekologik-iqtisodiy indikatorlarini tahlil qilish va hisob-kitob qilish katta ahamiyatga ega. Modelning samaradorligi "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari natijadorligini hisobga olgan holda uni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlari bilan izohlanadi. Modelni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi deganda tadbirlar majmuini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega natijasi tushuniladi. U quyidagilar bilan ifodalanadi:

- qurilish, transport sohasida, qishloq xo'jaligida ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan investitsiya faolligini kuchaytirish hisobiga "yashil" ishlab chiqarish (ekologik toza texnologiyalar) hajmlarini oshirish;
- ishlab chiqarish energiya sig'imini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish va suv resurslarining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan holda yo'qotilishini kamaytirish hisobiga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish;
- chiqindilarni utilizatsiya qilish bo'yicha tadbirlar majmuini amalga oshirish natijasida salbiy antropogen ta'sirdan aholi va iqtisodiyot obyektlarining himoyalanganligini oshirish.

2000-yillarning boshlarida O'zbekistonda havoga CO₂ emissiyasi ko'paydi, keyinchalik 2012-16-yillar oralig'ida pasaydi. Emissiyalar 2016-yildan so'ng o'sish trayektoriyasini tikladi, 2020-yilda Pandemiya sababli sezilarli pasaydi. 2021-yilda O'zbekistonda aholi jon boshiga CO₂

emissiyasi umumiy emissiyaga o'rtacha fuqaroning hissasi 3,6 tonnani tashkil etdi. Bu O'rta Osiyodagi o'rtacha 6,7 tonnadan ancha kam edi.

Emissiyalar ortishiga qaramay, O'zbekiston global uglerod chiqindilarining ortishiga oz bo'lsa-da hissa qo'shmoqda. 2020-yilda uning chiqindilari Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan 20 baravar kam bo'lib, mintaqadagi chiqindilarning 5 foizini tashkil etgan. Oxirgi uch yillikda O'zbekistonning global chiqindilar ulushi 0,33 foizni tashkil etdi. Energiya (energetika) sektori asosiy CO₂ emitenti bo'lib, elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun tabiiy gaz yoqilg'isini yoqish natijasida chiqadigan chiqindilarning 79 foizini tashkil qiladi.



2-rasm. Qayta tiklanadigan elektr energiyasining, elektr energiyasi manbasidagi ulushi %¹


Birlamchi energiya ta'minoti (TPES) va elektr ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi past va so'nggi besh yil ichida kamaydi. Birlamchi energiya tarkibidagi qayta tiklanadigan energiya manbalari (RES) ulushi kamayib bormoqda va unchalik katta emas, 2020-yilda 1% dan kam. Qayta tiklanadigan energiya ta'minotining deyarli barchasi (99%) gidroenergetikadan, keyin esa nisbatan yaqinda 2015-yildan o'sib borayotgan energiya manbai bo'lgan quyosh energiyasidan keladi. Yuqori salohiyatga qaramay, RESning energiya aralashmasiga qo'shgan hissasi pastligicha qolmoqda va uni ishlab chiqarish sekin yo'lni bosib o'tmoqda.

O'zbekiston o'zining asosiy energiya ta'minoti uchun tabiiy gaz, neft va ko'mir kabi qayta tiklanmaydigan manbalarga tayanadi. 2021-yilda qayta tiklanmaydigan manbalar iste'moli yoqilg'ilarning 85 foizi tabiiy gazni, 9 foizi neftni va 4 foizi ko'mirni tashkil etgan (OWD, 2023).

Eskirgan infratuzilma, elektr stansiyalari va tarmoq tizimlari asosan an'anaviy energiya manbalarini joylashtirish uchun mo'ljallangan. Bu qo'shimcha va RES (IEA, 2022) ning tezkor integratsiyasi uchun to'siq yaratadi. Masalan, 2019-yilda sanoat miqyosida quyosh elektr stansiyalari yoki shamol stansiyalari mavjud emas edi.

O'zbekistonda 2002-2022-yillarda energiya unumdorligi oshdi va shu sababli so'nggi yigirma yillikda iqtisodiyotning energiya sig'implari pasaydi. O'zbekiston energiyadan foydalanishda yanada samarali bo'lib bormoqda, bu energiya unumdorligining 2005-2022-yillarga nisbatan uch baravar oshgani bilan tasdiqlanadi. Hosildorlikning oshishiga iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida, xususan, sanoatda takomillashtirilgan, energiya tejamkor texnologiyalarga ustuvor ahamiyat beruvchi, ilgari suruvchi va sarmoya kirituvchi davlat siyosati sabab bo'lmoqda.

¹ <https://ggi-uzbekistan.onrender.com/group2>



3-rasm. YaIMning energiya intensivligi²

O‘zbekiston 2022-yilda kishi boshiga energiya sarfi bo‘yicha sakkizinchi o‘rinni egallagan. So‘nggi yillarda u energiya sarfini kamaytirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq, muammolar eskirgan infratuzilma va sekin yangilanishlar bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda (IEA, 2022).

Shu bilan birga, mamlakatimizda ekologik vaziyatlarni yaxshilash va atrof muhit ekotizimlarini yaxshilashga harakat qilmoqda. 2011-21-yillar davomida O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar soni 3 baravar ko‘paydi. O‘zbekistonda bioxilma-xillik va ekotizimlarni saqlash uchun zarur bo‘lgan 41 ta qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar mavjud (UNEP-WCMC, 2023). Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar 2011-yildagi 0,8 million gektardan 2021-yilda 3,5 million gektarga yoki 34 578 km² ga (yer maydonining 8 foizi) uch barobarga oshdi. 2021-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 13 ta hududdan 8 tasida qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar tashkil etilgan.

O‘zbekiston bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha Milliy strategiya va harakatlar rejasi hamda “2019-2028-yillarga mo‘ljallangan bioxilma-xillikni saqlash strategiyasi”da belgilab berilganidek, 2028-yilga borib muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy qamrovini o‘z hududining 12 foiziga yetkazish majburiyatini oldi.

Mamlakatimizda ekologik vaziyatlarni yaxshilash, atrof muhitni asrab avaylash aholi farovonligi va sog‘liqni saqlash masalalarini hal qilishda yordam beradi. Chunki atrof muhitning ifloslanishi, havoda toksin gazlarining ortishi oqibatida o‘lim darajasi sezilarli darajada ko‘payadi.

Havoning ifloslanishi tufayli o‘lim va bevaqt o‘lim darajasi yuqori va bu jahon o‘rtacha darajasidan baland. 2022-yilda respirator kasalliklar o‘limning deyarli 10 foiziga sabab bo‘ldi. Qoraqalpog‘iston viloyatining qurg‘oqchil hududlarida surunkali bronxit bilan kasallanish holatlari respublikaning qolgan hududlariga nisbatan 2,5-3,0 barobar ko‘p (IQAIR, 2021).

O‘zbekistonda tashqi havoning ifloslanishi bilan bog‘liq o‘limlar soni bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi (AQShning O‘zbekistondagi elchixonasi, 2019-yil). Xususan, O‘zbekistonda so‘nggi 30 yil davomida har yili 1 million aholidan 750 dan ortiq kishi PM_{2.5} ta‘siridan vafot etgan, bu 2019-yildagi o‘rtacha 645 kishidan yuqori.

Yana bir vaziyatga nazar solsak, uy xo‘jaliklarining yaxshilangan va xavfsiz manbadan ichimlik suvi bilan ta‘minlanganligi ulushi, so‘nggi o‘n yil ichida 10% ga kamaydi. 2022-yilda O‘zbekiston uy xo‘jaliklarining 72 foizi toza ichimlik suviga ega bo‘ldi, bu 2010-yildagi 82,5 foizdan kamaygan.

² <https://ggi-uzbekistan.onrender.com/group2>



4-rasm. Nafas olish kasalliklari tufayli o'lim, o'lim %³

Bu ulush, asosan, aholi va uy-joylarning ko'payishiga qaramay, suv ta'minoti infratuzilmasi va suv xizmatlarining eskirganligi tufayli yuzaga kelgan va to'xtab qoldi. Bu nisbat jahon o'rtacha ko'rsatkichidan past, shaharlar va qishloqlar o'rtasida tengsizlik yuqori. Toshkent shahridagi uylarning 97 foizdan ortig'i ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, Qashqadaryo viloyati eng past suv ta'minotiga ega viloyat bo'lib qolmoqda.

Kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni oldi olish maqsadida, O'zbekiston ko'p tomonlama institutlar va Birlashgan Millatlar Tashkilotining grantlari va kreditlari orqali yashil o'sish uchun mo'ljallangan mablag'larni jalb qilmoqda. 2023-yilga kelib O'zbekiston yashil o'sishning strategik ustuvorliklarini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro moliya institutlari (XMI) va rivojlanish bo'yicha sheriklardan 840 million dollar kredit va 66 million dollar grant mablag'larini jalb qildi. Yashil o'sishni rivojlantirishga ko'mak berishning tizimli monitoringining yo'qligi esa tendensiyalarni kuzatish imkonini bermayapti.

2030-yilgacha Yashil iqtisodiyotga o'tish milliy strategiyasining bir qismi sifatida O'zbekiston davlat va xususiy manbalardan yashil investitsiyalarni ochish uchun maxsus fondlar va yashil obligatsiyalarni tashkil etish uchun aralash moliyalashtirishni amalga oshirishni boshladi. Mamlakat, shuningdek, davlat-xususiy hamkorlik doirasida qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb qilmoqda. Biroq, u raqobatbardosh uglerod savdo bozorida ishtirok etmaydi.

“Yashil” iqtisodiyot inson ehtiyojlarini qondirishga, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirni hisobga olishga, kelajak avlodlar farovonligiga ustuvor ahamiyat berishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, “yashil” iqtisodiyot uzoq muddatli istiqbolda inson farovonligini oshirishga olib keladigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat tizimidir va bu tizimning faol ishlashi kelajak avlodlar muhim ekologik xavflarga yoki ekologik tanqislikka duchor bo'lmasligiga asos bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston “yashil” iqtisodiyotga o'tishni va “yashil” o'sishni ta'minlashda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
- milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;

³ <https://ggi-uzbekistan.onrender.com/group4>

- milliy iqtisodiyot, xususan sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash;
 - innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish;
 - barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish;
 - “yashil” iqtisodiyotga o’tish davrida katta ta’sir kuchiga ega bo’lgan aholi qatlamlarini va ularning yashash joylarini qo’llab-quvvatlash;
 - “yashil” o’sish bo’yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;
 - “yashil” iqtisodiyotga o’tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish;
 - tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko’paytirish;
 - tabiiy resurslardan foydalanish masalalari hamda eko-innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
 - ekologik soliqlarni takomillashtirish va ekologik talablarni hisobga olgan holda davlat tomonidan xarid qilish va “yashil” investitsiyalarni amalga oshirish vositasida “yashil” (ekologik toza) texnologiyalarni rivojlantirish uchun yangi moliyaviy vositalarni joriy etish;
 - atrof-muhit sifatini tiklash yoki saqlashga yordam beradigan yangi ish o’rinlarini yaratishga qaratilgan iqtisodiy sohalarni va korxonalarni qo’llab-quvvatlashni ta’minlash.
- Global darajada yashil iqtisodiyotga o’tish katta miqdordagi moliyaviy mablag’larni talab etadi. Xalqaro energetika agentligining 2050-yilgacha birgina CO2 emissiyasini ikki baravarga kamaytirish bo’yicha turli ssenariylari shuni ko’rsatmoqdaki, ushbu maqsadga erishish uchun “yashil iqtisodiyot”ga qo’shimcha investitsiyalar miqdori dunyo YaIMning 1-2,5% darajasida bo’lishi talab etiladi. Ahamiyatlisi shundaki, mazkur investitsiyalarning katta qismi qurilish va transport sohasini “yashillashtirish” uchun yo’naltirilishi kerak bo’ladi va boshqalar.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

General Report for Representatives of Power Structures, (2022) Ways to Sustainable Development and Poverty Alleviation Is a General Report for Representatives of Power Structures]. Available at: http://old.ecocongress.info/5_congr/docs/doklad.pdf

Qaror (2022) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori.

YNBP, (2009) Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009 http://www.unep.org/greenconomy/portals/30/docs/GGND-policy-brief_Russian.pdf

Zhang, D., Mohsin, M., Rasheed, A. K., Chang, Y., Taghizadeh-Hesary, F. (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153, 112256.

Алимов Б. Б. Ўзбекистонда яшил иқтисодиётни ривожлантириш стратегияси //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 37. – С. 175-184.

Буневич, К. Г., & Горбачева, Т. А. (2022). «Зеленые» тенденции в развитии мировой финансовой системы. Вестник Московского университета имени СЮ Витте. Серия 1: Экономика и управление, (1 (40)), 52-60.

Иминов Т.К., Ваҳобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития. Монография. -Т: «Алоқачи», 480.

Исаджанов А.А. (2020) “Яшил иқтисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. Иқтисодиёт ва таълим / No 1

Муминова Э.А. (2023) Яшил иқтисодиёт барқарор ривожланиш механизми сифатида //Экономика и финансы (Узбекистан). –№. 1 (161). – С. 16-22.

Нуров, З., Ражабова, М. Х. (2022). «Яшил иқтисодиёт» да энергетика соҳасининг иқтисодий. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 781-787

Хашимов П. З. и др. (2022) Ресурсларнинг чекланганлиги ва “Яшил иқтисодиёт” га ўтиш зарурияти //Science and innovation. –Т.: 1. – №. А3. –С. 305-308.